

**RELIGIOUS BELIEFS IN ANCIENT EGYPT AND THEIR HISTORICAL SIGNIFICANCE****Noraliyeva M.**

Student of the History Department, Faculty of History, Nizami Named Uzbekistan National Pedagogical University

**Annotation**

Egypt has been a center of civilization, culture, trade, and religion from ancient times to the present day. This article analyzes the religious beliefs formed in ancient Egyptian civilization, their role in society, and their significance. In particular, the polytheistic beliefs of the Egyptians, the system of major gods, their concepts of the soul and the afterlife, as well as their religious rituals and traditions are described. Additionally, the divine status of the pharaohs, the activities of temples, and the reflection of religious beliefs in art and architecture are examined through examples. The article aims to reveal the unique features of the religious worldview of ancient Egypt.

**Keywords**

Battle of Pelusium, Bastet, Sekhmet, Taweret, Son of the Sun, Osiris, Anubis, Sobek, Mummification, Amun

**QADIMGI MISRDAGI DINIY QARASHLAR VA UNING TARIXIY AHAMIYATI****Annotatsiya**

Misir qadim zamondan hozirgi kunga qadar sivilizatsiya, madaniyat, savdo-sotiq va dinning o'chog'i bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada qadimgi Misr sivilizatsiyasida shakllangan diniy qarashlar, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, misrliklarning ko'pxudolik e'tiqodi, asosiy xudolar tizimi, ruh va oxirat haqidagi tasavvurlari hamda diniy marosim va urf-odatlarini yoritib beriladi. Shuningdek, firaonlarning ilohiy maqomi, ibodatxonalar faoliyati va diniy e'tiqodlarning san'at hamda me'morchilikdagi aks etishi misollar asosida ko'rib chiqiladi. Maqola qadimgi Misr diniy dunyoqarashining o'ziga xos jihatlarini ochib berishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar**

Pelusium jangi, Bastet, Soxmet, Tavaret, Quyoshning o'g'li, Osiris, Anubis, Sebek, Mumiyolash, Amon.

**Аннотация**

Египет с древних времён и до наших дней является центром цивилизации, культуры, торговли и религии. В данной статье анализируются религиозные представления, сформировавшиеся в древнеегипетской цивилизации, их роль и значение в жизни общества. В частности, рассматриваются политеистические верования египтян, система основных богов, их представления о душе и загробной жизни, а также религиозные обряды и традиции. Кроме того, на основе примеров анализируются божественный статус фараонов, деятельность храмов и отражение религиозных верований в искусстве и архитектуре. Статья направлена на раскрытие уникальных особенностей религиозного мировоззрения древнего Египта.



**Ключевые слова**

Битва при Пелусии, Бастет, Сехмет, Таверет, Сын Солнца, Осирис, Анубис, Себек, мумификация, Амон

**Kirish**

Qadimgi Misr sivilizatsiyasi insoniyat tarixida eng qadimiy va murakkab ijtimoiy-madaniy tizimlardan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu sivilizatsiyada diniy qarashlar jamiyatning barcha sohalari bilan uzviy bog'langan holda shakllanib, davlat boshqaruvi, huquqiy me'yorlar, san'at va kundalik turmush tarziga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Tarixiy va arxeologik manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, qadimgi Misr diniy tizimi uzoq evolyutsion jarayon natijasida vujudga kelgan bo'lib, dastlabki ibtidoiy e'tiqod shakllari — animizm, totemizm va fetishizm asosida rivojlangan. Keyingi bosqichlarda esa bu qarashlar murakkab politeistik tizimga aylangan va unda turli tabiiy hodisalar hamda ijtimoiy tushunchalar ilohiylashtirilgan. Natijada, keng qamrovli xudolar panteoni shakllanib, ular orqali borliq, hayot va o'lim masalalari izohlangan. Qadimgi Misr diniy dunyoqarashining muhim jihatlaridan biri insonning ruhiy mohiyati va uning o'limdan keyingi mavjudligi haqidagi tasavvurlar bilan bog'liqdir. Bu qarashlar asosida murakkab dafn marosimlari, jumladan, mumiyolash amaliyoti va maxsus me'moriy inshootlar vujudga kelgan. Shuningdek, diniy e'tiqodlar orqali jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish mustahkamlanib, hukmdorlarning ilohiy maqomi asoslab berilgan. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, qadimgi Misr diniy tizimini o'rganish orqali insoniyat tarixidagi ilk mafkuraviy tizimlarning shakllanishi, diniy ong evolyutsiyasi va uning ijtimoiy hayotga ta'siri masalalarini chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada qadimgi Misr diniy qarashlarining asosiy yo'nalishlari, ularning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ilmiy yondashuv asosida tahlil etiladi.

**Asosiy qism**

Qadimgi Misrda ilk diniy e'tiqod kurtaklari urug'chilik jamoasi davrida paydo bo'lib, juda uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Asosan fetishizm, totemizm, ayniqsa hayvonlarga sig'inish Misrda uzoq davom etgan. Misr xudolarining panteoni juda katta bo'lib, mingga yaqin xudoga sig'inilgan. Qadimgi podsholik davridan vujudga kelgan madaniyatga binoan misrliklar hayvon qiyofasidagi xudolarga sig'inganlar. Qadimgi podsholik davridan misrliklar hayvon qiyofasidagi xudolarga sig'inganlar. Misr aholisi mushukni yaxshi ko'rgan va unga go'zallik, sevgi ma'budasi va Quyosh xudosi Ra ning qizi sifatida sig'inishgan. Ushbu ma'buda birinchi sulola davrining Palermo tosh yozuvlarida tilga olingan bo'lib, u ilon chaqishidan himoya qiluvchi ma'buda sifatida qaralgan. Hattoki Fors shohi Kambiz II Pelisium jangida mushukdan Misrni bosib olishda foydalangan. Bundan Kambiz II misr xalqi mushukni muqaddas hayvon deb bilib, Bastet ma'budasi bilan bog'lab sig'inishidan xabardor bo'lgan. Shuninguchun Kambiz II askarlarining qalqonlariga ushbu muqaddas janzotlar tasvirini chizdirgan. Hatto oldinga mushuklarni haydab chiqargan degan rivoyatlar bor. Misr askarlari esa muqaddas hayvonlarga zarar yetkazishdan qo'rqib, to'liq qarshilik ko'rsata olmagan va forslarga ustunlikni bergan. Undan tashqari, Anubis o'liklar saltanatining posboni bo'lib, bo'ri boshli (ba'zi manbalarda it timsolida) qilib tasvirlangan. U marhumlarning ruhini Osiris sudiga ya'ni narigi dunyoga olib boruvchi ma'bud deb qarashgan. Donishmandlik oy aql va yozuv xudoosi sifatida esa Tot tasvirlanadi. Soxmet — sher boshli urush ilohasi, suv to'lqini xudosi Sebek timsoh qiyofasida chiqadi. Ma'buda — begemot qiyofasida tasvirlangan Tavaret chaqaloq va homilador ayollarning ko'zi yorishiga yordam bergan. Ilohiy deb hisoblangan hayvonlar (timsoh, mushuk) ibodatxonada saqlanib, yaxshi parvarish qilingan. Ularning o'limi haqida Gerodot: "Misr Liviya bilan chegaradosh bo'lsa-da, unda hayvonlar uncha ko'p emas, lekin u yerda bor bo'lgan barcha hayvonlar xonaki hamda yovvoyi, muqaddas hisoblanadi. Har bir turdagi jonivorlarni parvarish qilish uchun misrliklarda alohida xizmatchilar, erkak va ayollar belgilangan va bu lavozimlar otadan o'g'ilga



o'tadi. Shaharning har bir aholisi quyidagi tarzda muqaddas hayvonlar oldiga o'zining iltifotini ko'rsatadi. Ma'lum jonivor bag'ishlangan xudoga ibodat qilib bo'lgandan keyin ular o'zlarining bolalari boshidagi sochini tola yoki boshining yarmini uchdan bir qismi sochini oladi va keyin sochni kumushga o'lchaydi. Sochlar kumushning qancha og'irligiga tortsa, shunchasini xodimaga beradi va buning evaziga jonivorlarga yemish uchun baliq kesadi. Bu jonivorlar uchun ovqatlanish shunday usulda. Agar kimdir bu jonivorlardan birini ataylab o'ldirsa, uni o'lim bilan jazolaydilar; agar ataylab bo'lmasa - koinlar belgilagan jarimani to'laydi. Kim agarda ibis yoki kalxatni o'ldirsa, har ehtimolga qarshi o'lishi lozim. Agar uyda mushuk o'lib qolsa, uyda barcha yashovchilar faqat qoshlarini qirdiradilar, agar it o'lib qolsa hammalari o'zlarining badanidagi va boshidagi sochlarini oladilar. Undan tashqari, Sebek -daryolar va ko'llar xudosi, Seshat - yozuv, hisob-kitob va xotira ilohasi, Maat -adolat va haqiqat ilohasi, Montu - urush xudosi hisoblanardi. Xudolardan biri hisoblangan Amonning yerdagi timsoli buqa ko'rinishida bo'lib, u kuch-qudrat ramzi hisoblangan. Misrliklar bu muqaddas buqaga sig'inishda ham alohida ahamiyat berishgan. Agar buqa o'lib qoladigan bo'lsa, uni mumiyolab, marosimlar o'tkazib, alohida bir qabrga ko'mishgan va uning o'rniga yangi tug'ilgan buzoqchani izlashgan. Bu juda mushkul ish hisoblangan. Chunki buningcha qora rangli bo'lib, peshonasida uchburchak shakldagi oq belgisi bo'lishi kerak edi. Misrliklar tabiat kuchlariga sig'inishgan. Quyosh xudosi Ra eng qudratli iloh hisoblangan. Misrning o'zi "Quyosh mamlakati", hukmdori — fir'avnlr esa "Quyoshning o'g'li" deb atalgan. Boshda Fiva shahrining xudosi Amon butun mamlakatda yaratuvchi xudo sifatida keng tarqalgan. Yangi podsholik davridan Amon quyosh xudosi Ra bilan birlashtirilgan. Amon Ra nomi bilan eng qudratli xudo hisoblangan. Yangi podsholik davrda esa fir'avn Amenxotep IV (Exnaton) diniy islohot o'tkazib, yakka xudolikni joriy qiladi. Ya'ni u hammani (Quyosh shul'asi) sig'inishga da'vat etadi. Quyoshning belgisi (ramzi) turlicha bo'lib, qanotli sher qiyofasida, lochin qiyofasida tasvirlangan. Unga atab ko'p madhiyalar aytilgan. Gor (Xor) zulmatni yenguvchi hisoblanib, u lochin qiyofasida tasvirlangan. Gor Osirisning o'g'li bo'lgan. "Osiris va Gor" afsonasi Misr dinini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Afsonalarda aytilishicha, hosildorlik xudosi Osiris Misrning podshosi bo'lgan. U odamlarga yerga ishlov berishni, bog'lar yaratishni o'rgatadi. Uni o'z akasi Set tomonidan o'ldiriladi. Set yovuzlik va zulmat xudosi hisoblangan. Osirisning o'g'li Gor Setni ochiq maydonga kurashga chaqirib, uni yengadi. Shundan so'ng Gor o'z ko'zini Osirisga berib, uni qayta tiriltiradi. Qayta tirilgan Osiris yerga qaytmaydi va u yerosti o'liklar saltanatining podshosi bo'lib qoladi. Yerdagi merosxo'ri esa Gor bo'lib qoladi. Misr xalqining boshqa bir afsonasiga ko'ra, Osirisni uning rafiqasi Isida tiriltirishi haqida ma'lumotlar bor.

Ma'budlar tomirida qon o'rnida oltin oqishi ularni oddiy insonlardan ajratib turuvchi xislatlaridan biri hisoblanadi.

Qadimgi Misrda o'z xudolarini yarim inson va yarim hayvon qiyofasida tasvirlaganlar va inson o'limidan keyin uning boqiy ruhi mavjud deb hisoblaganlar. Misr madaniyatida o'lim bilan hayot doimo bir-biriga qarama-qarshi turgan. Ajabmas ruh alohida o'rin egallagan. Mana shu ajalsizlikka intilish ko'mish marosimlarining shakllanishiga olib kelgan. Diniy marosimlarda har bir odam alohida xususiyatga ega bo'lgan. Masalan, sax — inson jismi, shuvut — uning soyasi, rek — uning ismi, ax — uning arvohi hisoblanadi. Bu yerda eng muhim rolni Ra — insonning joni ya'ni ajalsizlikning negizi o'ynagan. Misr diniga ko'ra, Ra o'z jismiga birikishi va qayta dunyoga kelishi kerak bo'lgan. Chunki odam o'lganda faqat uning jismi o'ladi, ammo ruhi abadiy yashash uchun narigi dunyo — o'liklar saltanatiga, mangu yashash uchun ketadi. Qadimgi misrliklarning ana shunday diniy tasavvurlari asosida odamning jasadini abadiy saqlash fikri tug'iladi va mumiyolash jarayoni vujudga keladi. Shuningdek ularning tanasiga hech qanday shikast yetmasligi uchun yoki boshqa bosqinlardan xolos bo'lish uchun piramidalar qurilgan. Fir'avnlarni ko'mishdan oldin uning tanasi koinlar tomonidan mumiyolangan. Bu jarayon 70 kun davom etgan. Mumiyolash orqali fir'avn tanasi saqlab, tosh tobut „sarkofag“ka qo'yishgan. Uning yuragi, talog'i maxsus idish kanopada saqlangan. Gerodot qadimgi Misrda o'lganlarning



jasadini mumiyolash to'g'risida shunday ma'lumot beradi. Boshda ular burun orqali temir ilmoq bilan miyani ajratib oladilar. Bu usul bilan miyani bir qismini, qolgan qismini dori-darmon purkash yo'li bilan oladilar. Keyin o'tkir efiop toshi bilan kindikni kesib, butun qorin qismini ichki a'zoldan tozalaydilar. Qorin qismini tozalab va uni palma vinosi bilan yuvib, ustalar uni yangi ezilgan xushbo'y moddalar bilan tozalaydilar. Nihoyat toza, ezilgan mirra (xushbo'y o'simlik qatroni), kasiya (xushbo'y o'simlikdan olinadigan modda) va boshqa xushbo'y moddalar (ladan va boshqa) bilan to'ldirib, uni yangidan tikadilar. Shundan keyin jasadni 70 kun natriy eritmasiga soladilar. Biroq 70 kundan ko'p muddatning tugashi bilan jasadni yuvib, visson gazlamasidan qirg'ilgan bint bilan (uni) o'rab (yelim o'rni ishlatiladigan modda) kurkaladi.

Qadimgi misrliklar tasavvuriga ko'ra, marhumning ruhi 70 kundan so'ng narigi dunyoga mangu yashash uchun jo'natilgan. O'liklar saltanatiga borgan odamlarni ikkinchi o'lim kutgan. Misrda mingga yaqin turli xil mahalliy va umum-misr miqyosidagi ilohlarga e'tiqod qilingan. Qaysi bir nom hokimi umum-misr hukmdori — firavnlik taxtiga o'tirsa, shu nomning xudosi umum-misr xudosi aylangan. Misol uchun, nom markazi bo'lgan Fiva Misr poytaxti bo'lganda, hech kimga ma'lum bo'lmagan Fiva xudosi Amon xudolar ichida bosh xudo deb tan olingan.

Diniy urf-odat an'analarga Misrda qat'iy rioya qilingan. Xudolarga sig'inish uchun ibodatxonalar, haykallar bunyod qilingan. Ibodatxona xudoning uyi, koinlar esa uning xizmatkorlari sifatida qaralgan. Xudo haykal tasvirida bo'lib, unga sig'inilgan. Xudo sig'inish rasm-rusum marosimlari qat'iy shakllantirilgan: xudolar kiyintirilgan, ramziy ovqatlantirilgan, qurbonlik keltirib, qo'shiqlar, raqslar va bayram marosimlari namoyishlari bilan uning ko'ngli olingan.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, qadimgi Misr dunyoqarashlari insoniyat tarixida o'ziga xos va murakkab tuzum sifatida shakllangan. Ularning e'tiqodida tabiat kuchlari, ko'p xudolik (politeizm) ruhning abadiyligi va o'limdan keyingi hayotga ishonch muhim o'rin egallagan. Ko'p xudolik, ya'ni har xil xudolarga e'tiqod qilish eng birinchi navbatda aholi o'rtasida urushlarni keltirib chiqaradi. Undan tashqari, hamma xudoga qurbonlik qilish ko'pchilik aholini moddiy jihatdan qiyinab qo'yadi. Yana insonlar hayvonlarga e'tiqod qilib, ularni xudoning yerdagi siymosi deb bilib, o'ldirishni ham taqiqlaydilar. Hatto yirtqich hayvonlarga ham sig'inib, o'ldirmasligi tayinlangan, bu masalan, timsohlarga e'tiqod qilingan, agar timsohlar haddan ortiq ko'payib ketsa, insonlar daryolardan o'ta olmaydi, baliq ovlay olmaydi. Insonlar bir-biriga ko'rsatmagan hurmat-e'tiborni hayvonlarga ko'rsatgan. Masalan, oddiy xalqning dafn etish marosimidan ko'ra, "avliyo" deb bilgan hayvonlar dafn marosimi o'z o'rniga qo'yilgan, mo'miyolangan, piramidalarda dafn etilgan. Aslida eng oliy zot inson emasmi? Shuningdek, diniy qarashlar jamiyatning barcha sohalariga - siyosat, madaniyat, san'at va kundalik turmushga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Firavnlarni ilohiy shaxs sifatida ko'rib, ular orqali xudolar irodasi amalga oshadi deb hisoblangan. Aslida esa firavnlarni xalqni kuch bilan birga din bilan ham itoatda tutib turganlar. Ba'zi bir rasm-rusum e'tiqodlariga qaraydigan bo'lsak, koinlar fravinlar o'zlariga moslab tuzib olganini guvohi bo'lamiz. Ammo shu din tufayli hozirgi kunda ham qilinishi murakkab bo'lgan ishni odamlar o'sha davridayoq qila olgan, ya'ni momiyolash.

Bu murakkab tibbiyot turi hisoblanadi. Misrliklar dini shu noyob momiyolashni bilgani uchun dunyoni lol qoldirgan xalqdir. Qo'rquv xalqni nozik tomoni hisoblanadi. Bu esa Kambiz II ga o'xshaganlarga e'tiqotidan ya'ni shu nozik tomonidan foydalanib qolishga qo'l kelgan.

### Foydalangan adabiyotlar

1. D. J. URAKOV "Jahon tarixi".- Toshkent Innovatsiya-Ziyo 2020.
2. R. RAJABOV "Qadimgi dunyo tarixi" Toshkent- 2009
3. U. B. EMERI "Axaichiski Egipet" Aleksandriya kutubxonasi- 2001
4. Ensiklopediya "Istoriya Drevnogo Mira" Olma media grupp- 2004

